



ZAMONAVIY BOSHQARUVDA RAQAMLI TEKNOLOGIYALARNING O‘RNI

Elmurodov J.A.

Oriental universiteti p.f.f.d., (PhD).dotsent

Matrasulova M.O.

Oriental universiteti magistranti

Tayanch so‘zlar: zamonaviy boshqaruv, raqamli texnologiyalar, raqamli transformatsiya, raqamlashtirish, raqamli iqtisodiyot, samaradorlik, iqtisodiy samaradorlik.

Ключевые слова: современный менеджмент, цифровые технологии, цифровая трансформация, цифровизация, цифровая экономика, эффективность, экономическая эффективность.

Key words: modern management, digital technologies, digital transformation, digitalization, digital economy, efficiency, economic efficiency.

Zamonaviy boshqaruvda raqamli texnologiyalardan foydalanish boshqaruv faoliyati samaradorligini oshiribgina qolmay, balki uning shaffofligi, sifatini oshirish va iqtisodiy jihatdan tejamkorligiga ham imkoniyat yaratishi mumkin.

Bu borada O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning Oliy Majlisga yo‘llagan murojaatnomasida “Raqamli texnologiyalar nafaqat mahsulot va xizmatlar sifatini oshiradi, ortiqcha xarajatlarni kamaytiradi. Shu bilan birga, meni juda qattiq tashvishga soladigan va bezovta qiladigan eng og‘ir illat – korruptsiya balosini yo‘qotishda ham ular samarali vositadir. Buni barchamiz teran anglab olishimiz darkor. Davlat va jamiyat boshqaruvi, ijtimoiy sohada ham raqamli texnologiyalarni keng joriy etib, natijadorlikni oshirish, bir so‘z bilan aytganda, odamlar turmushini keskin yaxshilash mumkin”[1], -deya ta’kidlab o‘tgan edi.

Shu kunga qadar “raqamli transformatsiya” yoki “raqamlashtirish” tushunchalarining aniq ta’rifi shakllanmagan. Keng ma’noda raqamli transformatsiya jamiyatning barcha sohalarida raqamli texnologiyalardan foydalanish bilan bog‘liq o‘zgarishlarni anglatadi. Hozirgi kunda raqamli transformatsiya iqtisodiyotning turli tarmoq va sohalarida, davlat yoki xususiy



sektor korxonalari faoliyati ko'rsatkichlarini tubdan yaxshilash yoki ko'lamini kengaytirish imkoninim beruvchi asosiy tendentsiya sifatida o'rganiladi. Raqamli transformatsiya strategiyalari ko'pincha mahsulotlarni, jarayonlarni o'zgartirishga, innovatsion texnologiyalarni qo'llash asosida faoliyatni (boshqaruvni) tashkil etishga, iste'molchilar ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan[2].

Raqamli texnologiyalar bugungi kunda jadal sur'atlar bilan rivojlanmoqda. Rivojlangan davlatlarda raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish uchun uzoq muddatga mo'ljallangan davlat dasturlari ishlab chiqilmoqda. Xususan, mamlakatimizda ham hozirda raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish davlat dasturi ishlab chiqilgan va uni amalga oshirish

L.V. Lapidus o'z tadqiqotlarida raqamli texnologiyalar evolyutsiyasi ta'siri ostida biznes modellarini o'zgartirish nuqtai nazaridan elektron biznes va elektron tijoratni boshqarish bo'yicha nazariy qoidalar va amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan[3].

J.S.Fayzullaev o'z ilmiy izdanishlarida transport-logistika tizimini boshqarishning zamonaviy usullari, murakkab tashkiliy-texnik ob'ektlarni tashkil etish, infratuzilmani samarali boshqarish bo'yicha logistik injiniring printsiplarini qo'llash muammolariga alohida e'tibor qaratgan. Shuning bilan birga transport-logistika tizimini boshqarishda proaktiv (ogohlantiruvchi) boshqaruv usulidan foydalanish bo'yicha takliflar berilgan[4].

Tadqiqotchi O.S.Umarov "Raqamli iqtisodiyot va uning tendentsiyalari" nomli maqolasida raqamli iqtisodiyot tushunchasi, raqamli iqtisodiyotga berilgan ta'riflar, raqamli iqtisodiyotga xos bo'lgan texnologik o'zgarishlar, raqamli iqtisodiyotning rivojlanishi aholi bandligiga ta'siri, milliy raqamli iqtisodiy xavfsizlik tizimini yaratish, yalpi milliy mahsulotdagi axborot kommunikatsiya texnologiyalari sohasining ulushi, aloqa va axborotlashtirishning ayrim ko'rsatkichlari tahlili, mamlakatimizda tarmoq va sohalarda foydalanilayotgan maxsus dasturiy vositalar soni tahlili masalalariga atroflicha to'xtalib o'tgan.

B.Xajievning tadqiqotlarida esa raqamli iqtisodiyotni shakllantirishning tamoyillarini ishlab chiqish, bunda mamlakatlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida iqtisodiyotni raqamlashtirish muhim ahamiyat kasb etishi yoritilgan. Raqamli iqtisodiyotning rivojlanish xususiyatlari intellektual vositalari mavjudligi, ma'lumotlar ortib borayotganligining ahamiyati, biznes tarmog'ini tashkil etish tizimi, internetdan keng miqyosda foydalanish va ma'lumotlar almashinuvining global xususiyatini o'z ichiga oladi. Raqamli iqtisodiyotga asoslangan jamiyatning muammolarini hal qilish vositalari uchun

raqamli platformalar, kloud komputing texnologiyalar va yirik ma'lumot bazalarini qayta ishlash usullarini turlicha yoritishga harakat qilgan[5].

Raqamli iqtisodiyotning asosiy belgilari yuqori darajada avtomatlashtirilganlik, elektron hujjat almashinuvini sifatli amalga oshirish mavjudligi, buxgalterlik, auditorlik va boshqaruv tizimlarining o'zaro elektron integratsiyalashuvi, ma'lumotlarning elektron bazalari, CRM (mijozlar bilan o'zaro munosabat tizimi) mavjudligi, turli xildagi korporativ tarmoqlardan iborat. Uning qulayliklariga turli to'lovlar uchun xarajatlarning qisqarishi (masalan, bankka borish uchun yo'lkira va boshqa resurslar tejaladi), tovar va xizmatlar haqida juda ko'p operativ ma'lumotlarga ega bo'lgan holda, ularni jahon bozoriga olib chiqish imkoniyatlari kengayishini kiritish mumkin.

Raqamli iqtisodiyotning an'anaviy iqtisodiyotdan farqi nimadalgiga izoh beraylik. Masalan, xaridorga biror-bir mahsulot yoki xizmat turi kerak. Uni bozorga tushib o'zi bevosita tanlasa va naqd pulga sotib olsa, bu an'anaviy iqtisodiyot bo'ladi. Internet tarmog'idagi biror-bir elektron savdo maydonchasidan yoki telegramdagi biror savdo boti orqali o'ziga ma'qul tovarni tanlab, tovar egasiga pulni elektron to'lov tizimi orqali to'lash va tovarni yetkazib berish xizmati orqali olishga – raqamli iqtisodiyot deyiladi.

Zamonaviy iqtisodiyotning eng muhim va qimmatli boyliklaridan biri raqamli platformalardir. Bunday platformalarni ishlab chiqarish va rivojlantirishda Facebook, iTunes, eBay, Amazon, LinkedIn, Airbnb, Tencent, VKontakte, Yandex, Avito, OZON faol ishtirok etmoqda.

Raqamli texnologiyalarni joriy etish va ulardan boshqaruv faoliyati samaradorligini oshirishda jahondagi rivojlangan davlatlar tajribasini ilmiy jihatdan o'rganish va uni mamlakatimizda joriy etish imkoniyatlarini baholash uchun quyida bu faoliyat bo'yicha namuna bo'la oluvchi davlatlar tajribasini tahlil qilib, o'rganib chiqamiz.

Raqamli iqtisodiyotda muvaffaqiyatga erishishning asosiy omili yangi texnologiya va ma'lumotlarni boshqarish modellari bo'lib, ular hukumatlar, biznes vakillari va fuqarolik jamiyati uchun kelajakdagi muammolar va ularga tezkor javob berish va modellashtirish imkonini beradi. 1-rasmda davlat darajasida boshqaruvni raqamlashtirish jarayonida boshqaruvning asosiy tamoyillari keltirilgan.

Janubiy Koreya va Yaponiyada yirik milliy korporatsiyalar (Samsung, LG, Toyota, Sony, Toshiba, SoftBank) negizida innovatsiyalar paydo bo'ladigan eng yirik raqamli kompaniyalarni yaratishga muvaffaq bo'lindi.

Raqamli iqtisodiyotning ulushini AQSh bilan taqqoslash mumkin bo'lgan Xitoy, rivojlanayotgan mamlakatlarga tegishli bo'lishiga qaramay, istiqbolli



Aniq va belgilangan vaqtda ma'lumotlarni yig'ish

Yirik ma'lumotlarning avtomatlashtirilgan tahliliga asoslangan iqtisodiy jarayonlarni boshqarish

Qarorlarni yuqori tezlikda qabul qilish, real vaqtda qoidalarni o'zgartirish

Ma'lum bir foydalanuvchiga mujozlarning hayotiy holatlarinin biznes-jarayon sifatida yo'naltirish

Raqamli ekotizim davlat, biznes va fuqarolar o'rtasida markaz sifatida tushuniladi

1-rasm. Raqamlashtirish jarayonlari sharoitida boshqaruvning asosiy tamoyillari

raqamli yechimlarni aniqlash va amalga oshirish, shuningdek, o'z loyihalarini ishlab chiqishda muvaffaqiyat qozondi. Buni ayniqsa eksportga yo'naltirilgan Alibaba, Huawei korxonalari misolida kuzatish mumkin. Xitoy ko'p millionli aholining xizmatlar sohasidagi ehtiyojlarni "raqamlashtirdi". Bugungi kunda xitoyliklar internet-chakana savdo, on-layn ekotizim va raqamli bank imkoniyatlaridan faol foydalanmoqdalar.

AQSh ham federal hukumat xodimlarining kasbiy faoliyatini baholash uchun maxsus dasturlardan (USA Performance) foydalanadi. Bu dastur yuqori darajadagi davlat xizmatchilari (ya'ni yuqori lavozimli davlat xizmatchilari) va boshqa davlat xizmatchilari uchun individual darajadagi natijalarni boshqarishning amalga oshirilishini ta'minlash uchun mo'ljallangan. Dasturiy ta'minot boshqaruv jarayonlarining barcha bosqichlarida professional faoliyatni rejalashtirish, kuzatish va baholash jarayonini avtomatlashtirish imkonini beradi. Shunday qilib, ushbu dasturiy mahsulotdan foydalanuvchi rahbarlar davlat xizmatchilari ish rejalarini elektron shaklda ishlab chiqadilar va tasdiqlaydilar, ularning bajarilishini nazorat qiladilar, fikr-mulohazalar yuboradilar va baholaydilar.

Professional dasturiy ta'minotni rejalashtirish, kuzatish va baholash jarayonini optimallashtirish orqali dasturiy ta'minot hokimiyatlarga natijalarga e'tibor berish, shuningdek real vaqt rejimida ishlashni boshqarish imkoniyatini beradi. Shunday qilib, raqamli texnologiyalar davlat organlari natijalarini rejalashtirish, monitoring qilish va baholashga an'anaviy yondashuvlarni sezilarli darajada o'zgartirishi mumkin. Turli manbalardan olingan ma'lumotlarni birlashtirish, tuzilmagan va qisman tuzilgan ma'lumot manbalari bilan ishlash, nazorat qilinadigan sinovlarning bir qismi sifatida individual tashabbuslarni sinash, davlat tomonidan tartibga solishni ishlab chiqish, monitoring qilish va baholash jarayoniga uzluksiz teskari aloqa to'plashni davlatga hozirgi muammolarni yaxshiroq aniqlash va hal qilish imkonini beradi.

Yana bir misol, Avstraliyaning Yangi Janubiy Uels shtatida haydovchilik guvohnomalari, tug'ilganlik to'g'risidagi guvohnomalar, pensiya guvohnomalari, nikoh guvohnomalari va ro'yxatga olish raqamlarini olish kabi 800 dan ortiq davlat xizmatlarini raqamli ravishda olish uchun yagona portal yaratildi. Foydalanuvchilarni yuqori sifatli qo'llab-quvvatlashga davlat xizmatlari portalida on-layn ravishda maslahat olish uchun chat mavjudligi misoldir. Bu nafaqat fuqarolarga yordam ko'rsatish imkoniyatlarini kengaytiradi, balki xarajatlarni kamaytirish imkonini beradi, chunki on-layn-operatorlar samaradorligi koll-markaz operatorlariga nisbatan 2-3 baravar yuqori[6].

Davlat boshqaruvida raqamli texnologiyalardan foydalanish imkoniyatlarini baholash uchun davlat boshqaruvi sifatining turli tomonlarini (davlat aralashuvi asosiligi, natijadorlik va samaradorligi) ko'rib chiqish, shuningdek, bir tomondan davlat boshqaruvi ehtiyojlarini tahlil qilish va bunday ehtiyojlarni qondirish uchun raqamli texnologiyalardan foydalanish imkoniyatlari va cheklovlarini aniqlash maqsadga muvofiqdir.

Shu bilan birga, davlat boshqaruvida ma'lum raqamli texnologiyalarni joriy etishning maqsadga muvofiqligi mezonlari sifatida quyidagilarni ko'rib chiqish taklif etiladi:

- samaradorlik – bu yoki boshqa raqamli texnologiyalarning joriy etilishi ko'rib chiqilayotgan yo'nalishda davlat boshqaruvi sifatini oshirish ehtiyojlarini qondirishga yordam berishi kerak, shu sababli davlat boshqaruvi samaradorligi va uning o'ziga xos parametrlarini oshirishni ta'minlashi kerak (masalan, texnologiyani joriy etish muayyan davlat funktsiyalarini bajarish muddatlarini qisqartirishga olib kelishi mumkin. Yangi jamoat tovarlari paydo bo'lishi va boshqalar);
- iqtisodiy samaradorlik – bittasini joriy etish davlat boshqaruvidagi boshqa raqamli texnologiyalar byudjet xarajatlarini (xech bo'lmaganda



asbobuskunalarni saqlash xarajatlari) yoki fuqarolar va tashkilotlarni xarajatlarini kamida oʻrta muddatli istiqbolda kamaytirishga yordam berishi kerak;

- tashqi raqobatbardoshlik – tashqi tomonlar orqali belgilangan shartlar va oʻlchamlar mavjudligi, standartlar, kutilayotgan natijalar (masalan, xususiy sektorning rivojlanishi darajasi va davlat xizmatlarini taqdim etishning sifat koʻrsatkichlariga nisbatan fuqarolar va ularning xususiy kompaniyalar (nodavlat tashkilotlari tomonidan taqdim etiladigan xizmatlardan foydalanish) tajribasi asosida).

Bu mezonlar boʻyicha baholashni oʻtkazish uchun maʼlum bir texnologiyadan oʻxshash maqsadlarda (shu jumladan xususiy sektorda yoki chet elda) foydalanish imkoniyatlari koʻrib chiqiladi. Istiqbolli (hozirda bu maqsadlar uchun foydalanilmayotgan) texnologiyalarni tatbiq etish imkoniyatlarini baholash uchun ularni koʻllash samaradorligi va iqtisodiy samaradorligi tahlil qilinadi.

Shu bilan birga raqamli texnologiyalarni joriy etishning asosiy xatarlari ham mavjud boʻlib, ular quyidagilardan iborat:

- hukumatning muhim sohalarida nazoratni yoʻqotish;
- shaxsiy maʼlumotlardan ruxsatsiz foydalanish;
- avtomatlashtirilgan boshqaruv qarorlarini qabul qilish paytida inson huquqlari buzilishi ehtimoli;
- tashkiliy xatarlar, shu jumladan idoraviy axborotlashtirishdan platformaviy yechimlarga oʻtish uchun ayrim hokimiyat vakillarining qarshiligi (boshqaruv imkoniyatini yoʻqotish xavfi, faoliyat bilan bogʻliq maʼlumotlarning jamoatchilik uchun ochiqligidan qoʻrqish).

Yuqoridagi tahlil natijalaridan kelib chiqib, xulosa qilsak, mamlakatimizdagi davlat boshqaruv sohasida ham raqamli texnologiyalardan foydalanish orqali quyidagi afzalliklarga erishish mumkin:

- boshqaruv jarayoni harajatlarini kamaytirish;
- boshqaruv qarorlarini tezkor va sifatli qabul qilishga erishish;
- jamoatchilikka davlat hokimiyati organlari faoliyati shaffof ekanligini kuzatib borish imkoniyatini berish;
- davlat xokimiyati organlari va ularning rahbarlari faoliyatini baholash jarayonida raqamli texnologiyalardan foydalangan holda faoliyat samaradorligini oshirish;
- raqamli texnologiyalarni qoʻllash orqali yashirin iqtisodiyotni keskin kamaytirish mumkin;



– davlat boshqaruvida raqamli texnologiyalardan foydalanish samaradorligini baholash.

Raqamli iqtisodiyotning asosiy belgilari yuqori darajada avtomatlashtirilganlik, elektron hujjat almashinuvini sifatli amalga oshirish mavjudligi, buxgalterlik, auditorlik va boshqaruv tizimlarining o‘zaro elektron integratsiyalashuvi, ma’lumotlarning elektron bazalari, CRM (mijozlar bilan o‘zaro munosabat tizimi) mavjudligi, turli xildagi korporativ tarmoqlardan iborat. Uning qulayliklariga turli to‘lovlar uchun xarajatlarning qisqarishi (masalan, bankka borish uchun yo‘lkira va boshqa resurslar tejaladi), tovar va xizmatlar haqida juda ko‘p operativ ma’lumotlarga ega bo‘lgan holda, ularni jahon bozoriga olib chiqish imkoniyatlari kengayishini kiritish mumkin.

Adabiyotlar:

1. Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.М.Мирзиёевнинг 2020 йил 24 январдаги Олий Мажлисга йўллаган мурожаатномаси.
2. Добролюбова, Е.И., Южаков, В.Н., Ефремов, А.А., Клочкова, Е.Н., Талапина, Э.В., Старцев, Я.Ю. Цифровое будущее государственного управления по результатам. – Москва, 2019 г. 14 с.
3. Лapidус Л.В. Цифровая экономика: управление электронным бизнесом и электронной коммерцией. – М.:ИНФРА-М, 2018. -381 с.
4. Файзуллаев Ж.С. Замонавий транспорт-логистика тизимининг бошқарув самарадорлигини ошириш. Мақола. “Иқтисодиёт ва инновацион технологиялар” илмий электрон журнали. № 6, ноябрь-декабрь, 2017 йил.
5. Хажиев Б., Отабоев Ф. Рақамли иқтисодиётнинг ривожланиш хусусиятлари. Мақола “Иқтисодийот ва innovatsion texnologiyalar” илмий электрон журнал. № 5. сентябрь-октябрь, 2020 йил.
6. Марц Н. Большие данные. Принципы и практика построения масштабируемых систем обработки данных в реальном времени. – М.: Вильямс, 2016. - 292 с.

РЕЗЮМЕ

Ushbu maqolada zamonaviy boshqaruvda raqamli texnologiyalarning o‘rni haqida so‘z yuritilgan. Jumladan xorijiy hamda mahalliy tadqiqotchilarning raqamli texnologiyalar haqidagi fikrlari yozilgan. Bundan tashqari raqamlashtirish sharoitida boshqaruvning asosiy tamoyillari yoritilgan

РЕЗЮМЕ

В данной статье рассматривается роль цифровых технологий в современном менеджменте. В частности, написаны мнения зарубежных и отечественных исследователей о цифровых технологиях. Кроме того, освещены основные принципы управления в условиях цифровизации.

SUMMARY

This article discusses the role of digital technologies in modern management. In particular, the opinions of foreign and domestic researchers about digital technologies are written. In addition, the basic principles of management in digitalization conditions are covered